



## SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN ASARLAR: MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR VA XALQARO TAJRIBA

Nusratilloeva Ra'no Muhsin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy axborot vositalari  
huquqi" yo'nalishi magistranti  
rnusratilloeva@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20038362>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 03-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 05-may 2026 yil

### KEYWORDS

*Sun'iy intellekt, mualliflik  
huquqi, prompt engineering,  
intellektual mulk, Fuqarolik  
kodeksi, raqamli media.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi bilan bog'liq muammolari tahlil qilinadi. "Prompt engineering" jarayoni zamonaviy ijodiy mehnat shakli sifatida ko'rib chiqiladi va uning huquqiy maqomini belgilash zaruriyati asoslanadi. Tadqiqot davomida AQSh, Xitoy va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning tajribasi qiyosiy o'rganiladi hamda O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi qonunchiligini, xususan, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" doirasida takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.*

Bugungi kunda bitta sifatli vizual tasvir yoki mukammal matn yaratish uchun ba'zan kompyuter qarshisida soatlab vaqt sarflashga to'g'ri keladi. Qahramonning xarakteri, yorug'lik tushish burchagi, kameraning obyektiv turi kabi o'ta nozik detallarni sun'iy intellektga tushuntirish, ya'ni to'g'ri so'rov yoxud "**prompt**" yozish shunchaki texnik buyruq emas, balki haqiqiy ijodiy jarayonga aylanib ulgurdi. Ammo shuncha aqliy mehnat sarflab yaxshi natija olgandan so'ng uni ommaga taqdim etish arafasida turgan jurnalist, dizayner yoki loyiha menejerida bitta og'riqli savol tug'iladi: **qonunan olganda, bu asarning muallifi o'zi kim?**

An'anaviy qonunchiligimiz asrlar davomida faqat qalam yoki mo'yqalamda, to'g'ridan to'g'ri inson harakati bilan yaratilgan asarlarni himoya qilishga moslashgan. **Sun'iy intellekt yordamida generatsiya qilingan kontentlarning huquqiy maqomi noaniq qolayotgani esa bugungi kunning eng yirik yuridik bo'shliqlaridan biridir.** Asarga nisbatan huquq kimga tegishli ekanligi: neyrotarmoqni ishlab chiqqan dasturchigami, unga aniq ijodiy parametrlar bergan foydalanuvchigami yoki asar hech kimga tegishli bo'lmagan "umumxalq mulki" hisoblanadimi – hozircha yagona yechimga ega emas.

Zamonaviy tahririyatlar va ommaviy axborot vositalari uchun sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlarning mualliflik huquqiy maqomi sohaning eng dolzarb mavzularidan biriga aylanib ulgurdi. OAV, YouTube loyihalar yoki axborot portallari o'zining kundalik faoliyatida reklamalar, koverlar va matnlar uchun sun'iy intellektidan muntazam foydalanmoqda. Huquqiy

aniqlikning yo'qligi esa ularning tijoriy manfaatlariga xavf solib, ijodkorlarni o'z mehnati mahsulini boshqalardan himoya qila olmaslik holatiga tushirib qo'ymoqda.

Bunday murakkab sharoitda milliy huquqiy bazadagi mavjud bo'shliqlarni ilg'or xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqish hamda qonunlarimizni bugungi raqamli reallikka zudlik bilan moslashtirish eng dolzarb zaruratga aylangan.

Bugungi kunda axborot tahririyatlari, loyihalar va podkastlar uchun yaratilayotgan vizual yoki matnli kontentlar mutlaqo inson aralashuvisiz, o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Inson algoritmlarga aniq yo'nalish beradi, o'nlab parametrlarni kiritadi va olingan natijani tahrirlaydi. Aynan shu nuqtada xalqaro huquqda **"Ijodkorlikning eng kam namunasi" (Modicum of Creativity)** tushunchasi o'rtaga chiqadi. Ya'ni, insondan sun'iy intellektga berilayotgan buyruqlarning o'zi qanchalik ijodiy xarakterga ega bo'lsa, u qonuniy himoyaga shunchalik haqli bo'lishi mumkinmi degan savol yuzaga keladi.

Ushbu masalaning o'zagi zamonaviy media va jurnalistikada **"prompt engineering" deb ataluvchi yangi faoliyat turiga** borib taqaladi. Sifatli, giper-realistik tasvirlar yoxud mukammal ssenariylar olish uchun **mutaxassislar asarning syujeti, kamera burchagi, yorug'likning darajasi, obyektidagi hissiyotlar va hatto ranglar gammasi kabi o'ta nozik detallarni o'z ichiga olgan murakkab so'rovlar - promptlar yozishadi.** Huquqshunoslar o'rtasidagi eng qizg'in bahslar aynan mazkur jarayonni qanday tasniflash atrofida bormoqda. Ba'zi ekspertlar prompt engineeringni oddiy buyurtmachining rassomga bergan ko'rsatmasiga o'xshatadi. "Menga dengiz bo'yida turgan odamni chizib ber" degan shaxs asar muallifi bo'lmaganidek, sun'iy intellektga prompt yozgan inson ham muallif bo'la olmaydi, degan qat'iy xulosani ilgari suradi. Biroq ancha progressiv hisoblangan ikkinchi yondashuv vakillari neyrotarmoqlarni xuddi fotoapparat kabi "ijodiy vosita" sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, fotograf tabiatni o'zi qo'lda chizmasa-da, kerakli linzani tanlashi, yorug'likni to'g'rilashi va kompozitsiyani his qilishi ortidan muallifga aylanganidek, kadrni rejalashtirib, muhitni so'zlar bilan "sozlayotgan" prompter ham intellektual mulk egasi sifatida tan olinishi shart.

Agar ushbu progressiv yondashuv huquqiy jihatdan tan olinsa, prompt engineering bevosita mualliflik huquqi bilan himoyalangan obyektga aylanadi. Ammo **hozirgi kunda na Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti sanaladigan WIPO va na Yevropa Ittifoqining yangi qabul qilingan "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonunida bu narsa o'zining aniq huquqiy ifodasini topmagan.** Yevropa Ittifoqi asarning muallifligini tasdiqlashdan ko'ra ko'proq shaffoflik prinsipiga urg'u berib, agar kontent sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan bo'lsa, bu haqida iste'molchiga ochiq e'lon qilinishi shartligini talab qilmoqda.

Sun'iy intellekt yaratgan asarlarning huquqiy maqomini belgilashda dunyo huquqshunosligi bugungi kunda ikkiga bo'lingan. Asosiy e'tibor texnologik gigantlar va yirik yuridik pretsedentlar shakllanib ulgurgan AQSh, Yevropa va Osiyo mintaqalariga qaratilmoqda.

AQSh Mualliflik huquqi byurosi hozircha qat'iy va konservativ pozitsiyani egallab, o'z amaliyotini **"Human Authorship" - Inson muallifligi** doktrinasiga tayangan holda yuritmoqda. Bu tamoyilga ko'ra, qonun faqatgina insonning bevosita ijodiy mehnati natijasidagina yuzaga kelgan asarlarnigina himoya qiladi. Mashhur *Thaler va Perlmutter* ishi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Baker Donelson. (2026, March 5). *Supreme Court denies certiorari in Thaler v. Perlmutter: AI cannot be an author under the Copyright Act.* <https://www.bakerdonelson.com/supreme-court-denies-certiorari-in-thaler-v-perlmutter-ai-cannot-be-an-author-under-the-copyright-act>

mualliflik huquqining doktrinal arxitekturasida inson markaziy o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Kolumbiya okrugi apellyatsiya sudi mashinalarni rag‘batlantirishga muhtoj bo‘lmagan va subyektivlikka ega bo‘lmagan “ongsiz asboblar” deb e‘lon qiladi, zamonaviy mualliflik huquqida korporatsiyalarning ahamiyatini kamaytirib ko‘rsatadi va asosiy urg‘uni ijtimoiy manfaatlarga qaratadi. Sud shuni ham aniq ta‘kidlaydiki: na ushbu qaror va na inson muallifligi haqidagi talab sun‘iy intellekt tomonidan boshqariladigan madaniy mahsulotlar yaratishning o‘sib borayotgan ahamiyatiga amaliy to‘siq bo‘lmaydi<sup>2</sup>.

Biroq AQShdan farqli o‘laroq, Xitoyda vaziyat butunlay boshqacha tus oldi. 2023-yil oxirida Pekin Internet sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan *Li va Liu* ishi sun‘iy intellekt va mualliflik huquqi tarixida burilish yasadi. 2023-yil 24-fevralda da‘vogar Li Yunkai Stable Diffusion ochiq manbali dasturiga promptlar kiritish orqali rasm yaratdi va ushbu rasmni Xiaohongshu ijtimoiy media platformasida “Spring Breeze Brings Tenderness” (1-rasm) sarlavhasi ostida e‘lon qildi. Keyinchalik da‘vogar, Baijiahao platformasidagi blogger, javobgar Liu Yuanchun 2023-yil 2-martda e‘lon qilingan “Love in March, in the Peach Blossoms” nomli maqolasida ushbu rasmdan uning ruxsatisiz foydalanganini aniqladi. Ish sudgacha oshgach sud da‘vogar tomonidan sun‘iy intellekt orqali yaratilgan asarini haqiqiy deb topdi.



1-rasm. Li tomonidan  
“Tenderness” rasmi

yaratilgan “Spring Breeze Brings

Xitoy mualliflik  
e‘tiborga molik jihati – bu

huquqi qonunchiligining  
“**intellektual yutuq**” talabi

bo‘lib, u *Li v Liu* ishidagi Sudga ko‘ra, “intellektual faoliyat natijalari”ni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, “asar jismoniy shaxsning intellektual hissasini aks ettirishi kerak”. Sud da‘vogar haqiqatda ma‘lum darajada intellektual sarmoya kiritganini, jumladan, “qahramonning taqdimotini loyihalash, prompt so‘zlarni tanlash, prompt so‘zlar tartibini belgilash, parametrlarni sozlash va o‘zi xohlagan rasmni tanlash”ni amalga oshirganini qayd etdi. Shunday qilib, rasm da‘vogarning intellektual sarmoyasini aks ettirgan, binobarin, “intellektual yutuq” elementi bajarilgan<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Blaszczyk, M. (2025). *Thaler v. Perlmutter: Human authors at the center of copyright*. SSRN Electronic Journal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.5210447>

<sup>3</sup> Stanley Lai and others, ‘Legal Implications – Beijing Internet Court Grants Copyright Protection to AI-Generated Artwork’ (Allen & Gledhill, 19 January 2024) <https://law.nus.edu.sg/trail/legal-implications-beijing-internetcourt-copyright/>

Ushbu mavzuda va umuman, intellektual mulk huquqi sohasida dunyodagi eng noyob va o'z vaqtidan o'zib ketgan qonunchilik tizimiga ega mamlakatlardan biri Buyuk Britaniyadir. 1988-yildagi "Mualliflik huquqi, dizayn va patentlar to'g'risida"gi qonun hali sun'iy intellekt bugungi darajaga yetmasidan ancha avval, 9(3)-bo'limda "Kompyuter yordamida yaratilgan asarlar" tushunchasini qonunchilikka kiritgan. Unga ko'ra, agar asar inson muallifisiz kompyuter tomonidan yaratilgan bo'lsa, uni yaratish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rgan shaxs, ya'ni prompter huquq egasi deb topiladi. Ushbu model bugungi neyrotarmoqlar davri uchun eng mos modellaridan biri sifatida ko'rilmogda. Xususan, B. Ganesh, C. Seidelin va T. Vogl o'zlarining "Algoritmik byurokratiya"ga oid tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, SI texnologiyalari davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarga kirib borar ekan, qarorlar qabul qilish jarayonining "avtonomligi" masalasi markazga chiqadi. Mualliflarning fikricha, aqlli texnologiyalar inson mehnatini "outsourcing" – tashqi manbaga yuklash xususiyatiga ega bo'lsa-da, huquqiy tizimda javobgarlik va egalikni saqlab qolish uchun Britaniya modeli kabi insonni "tashkilotchi" sifatida belgilash muhimdir.<sup>4</sup> Bu yondashuv nafaqat ijodiy asarlarni himoya qilishga, balki algoritmik tizimlar tomonidan chiqarilgan natijalar uchun har doim inson tomonidan nazorat qilinadigan huquqiy subyekt mavjudligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijda bu kabi muqobil yechimlar qo'llanilayotgan bir paytda milliy qonunchiligimizdagi holat o'ta an'anaviy xarakterga ega va bir qator jiddiy huquqiy bo'shliqlarga to'qnash kelmoqda. **Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi**<sup>5</sup> bilan SI texnologiyalarini rivojlantirish davlat darajasidagi vazifa etib belgilangan bo'lsa-da, unda yaratilgan intellektual mahsulotlarning mualliflik huquqi masalasi hali-hanuz ochiq qolmoqda

O'zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksining 1031, 1033-moddalariga ko'ra: "Fan, adabiyot yoki san'at asarlari mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi va ularni yaratgan fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi"**.<sup>6</sup> Qonundagi ushbu qisqa ta'rif zamonaviy media uchun ikkita yirik yuridik to'siqni keltirib chiqaradi. Birinchidan, "fuqaro" tushunchasi muallif faqat inson, ya'ni jismoniy shaxs bo'lishini qat'iy talab qiladi; sun'iy intellekt obyekti huquq layoqatiga ega bo'lmagach uning mahsuloti ham avtomatik ravishda "muallifisiz" qoladi. Ikkinchidan, hozirgi milliy amaliyotimizda kompyuter algoritmiga prompt orqali texnik parametrlar kiritish yuridik jihatdan "ijodiy mehnat" maqomini olmagan.

Milliy huquqiy bazamizdagi to'siqlar nafaqat Fuqarolik kodeksida, balki bevosita maxsus qonunchilik hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan tatbiq etilishi, 9-moddasida esa **"asarni o'zining ijodiy mehnati bilan yaratgan fuqaro asar muallifi etib e'tirof etilishi"** qat'iy belgilab qo'yilgan. Qonunning eng nozik huquqiy nuqtalaridan biri – bu **muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari, xususan, asarga o'z ismini qo'yish, daxlsizlikni talab qilish huquqlari masalasidir**. Algoritm jismoniy shaxs bo'lmagani uchun unda shaxsiy

<sup>4</sup> Ganesh, B., Seidelin, C., & Vogl, T. M. (2021). *Smart Technology and the Emergence of Algorithmic Bureaucracy: Artificial Intelligence in UK Local Authorities*. Public Administration Review.

<https://onlinelibrary.wiley.com/doi/pdf/10.1111%2Fpuar.13286>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2024, 14-oktyabr). *Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida*, PQ-358-son. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7158604>

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (1996). 1031, 1033-moddalar. <https://lex.uz/docs/111189>

nomulkiy huquqlar paydo bo'lmaydi. Lekin qonunchilikda "asarni yaratishni tashkil etgan shaxslar" yoki "texnik ko'mak ko'rsatgan shaxslar" muallif hisoblanmasligi to'g'risidagi qoida mavjud. Hozirgi eskirgan talqin bo'yicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar neyrotarmoqqa **prompt yozgan media xodimini ijodkor emas, balki shunchaki mashinaga "texnik buyruq beruvchi shaxs" sifatida baholash** ehtimoli juda yuqori. Bu esa, afsuski, media makonidagi yangi kasb egalari – prompt engineerlarning mehnatini qonuniy kafolatlarsiz qoldiradi.

Buning oqibatida, mamlakatimizda sun'iy intellekt yordamida yaratilgan media mahsulotlari hech qanday tijoriy va huquqiy himoyaga ega bo'lmagan **"Umumxalq mulki" darajasiga** tushib qolmoqda. Deylik, yirik media loyiha menejmenti tijoriy reklama yoki podkast uchun bir necha kun aqliy mehnat sarflab sun'iy intellekt yordamida o'ziga xos vizual personaj yoki ssenariy yaratdi. Qonun oldida media kompaniya mazkur asarning qonuniy muallifi sanalmagani sababli raqobatchilar bu matn yoki vizualni to'g'ridan to'g'ri o'g'irlab ishlatishi mumkin. Bu amaldagi plagiatchi qarshi kurashish mexanizmlari bu vaziyatda o'z kuchini yo'qotadi.

Bir mavzuda hatto dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari o'rtasida ham yuzaga kelayotgan ziddiyatli kontekstlar bugungi kunda jurnalistika, media menejmenti va vizual kommunikatsiya vakillari intellektual mulk himoyasi to'la ta'minlanmagan o'ta xavfli huquqiy hududda faoliyat yuritishga majbur bo'layotganini ko'rsatmoqda. Shu sababli, xalqaro tajriba asosida milliy qonunchiligimizga zudlik bilan **"Sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan asar" degan yangi huquqiy kategoriyani joriy etish zarur.** Bunda ushbu turdagi asarlarga nisbatan mutlaq va nomulkiy huquqlarni neyrotarmoqqa ijodiy hamda aniq parametrik yo'nalish bergan jismoniy yoki yuridik shaxsqa qonunan birlashtirib qo'yish mexanizmini ishlab chiqish soha rivoji uchun eng dolzarb qadam hisoblanadi.

Ochiq aytganda, qonunchilikdagi bo'shliqlar bugun shunchaki qog'ozdagi xato emas, balki ijodkorlarning cho'ntagiga va asabiga "hujum qilayotgan" real tijoriy xavfga aylangan. Aytaylik, ommabop YouTube podkast jamoasi yirik tijorat banki bilan reklama integratsiyasi uchun shartnoma tuzdi. Jamoaning prompt engineeri kompyuter qarshisiga o'tirib, sun'iy intellektga shunchaki "menga bank reklamasini qilib ber" deb yozmaydi. U o'zining aqliy salohiyatini ishga solib, o'nlab murakkab parametrlarni kiritadi. Masalan: *"Neon chiroqlar ostida, yomg'irli kechada, kadr ortidan kinomotografik 85mm obyektivda olingan, kiberpank uslubidagi xarakter, qahramonning yuzida ishonch hissi..."* deb o'z g'oyasini qadam-baqadam algoritimga "chizib" beradi. Eng asosiy mehnat ham shu yerdan boshlanadi. Neyrotarmoq bergan xomaki kadrlar yoki audio parchalari bevosita efirga ketmaydi. U montaj stolidagi mutaxassisning qo'liga tushadi. Mutaxassis **Adobe Premiere Pro** yoki **After Effects** kabi professional dasturlarda bu kadrlarni bir-biriga ulaydi, musiqiy ritmga moslab kesadi, yorug'lik va ranglar korreksiyasini amalga oshiradi hamda murakkab vizual effektlar va yozuvlar qo'shadi. Endi o'rtaga eng qiziq va og'riqli yuridik savol chiqadi: bankka katta summaga sotilayotgan, ortida shuncha insonning aqliy mehnati, tijoriy g'oyasi va montaj xonasidagi soatlab vaqti yotgan ushbu mukammal videoning qonuniy muallifi kim?

Amaldagi qonunchiligimizning eskirgan qoliplariga qarasa, u *"bu mashinada vizualizatsiya qilingan, inson faqat texnik tugmalarni bosgan. Demak bu asar hech kimga tegishli bo'lmagan umumxalq mulki"*, degan adolatsiz xulosani beradi. Agar ertaga qandaydir raqobatchi kanal xuddi shu tayyor videoni o'g'irlab, ustiga o'zining logotipini yopishtirib ishlatrsa, podkast

tahririyati uni sudga bera olmaydi! Plagiatga qarshi kurashish mexanizmlari ishlamaydi, chunki sud da'vogardan avvalo "asar sizniki ekanligini isbotlang" deb talab qiladi.

Shunday qilib, tahririyatlarda prompt engineering vositasida hamda insonning bevosita post-prodakshn mehnati orqali yaratilgan media mahsulotlarini mualliflik huquqi obyekt sifatida tan olmaslik amaliyotda jurnalist va montajyorlar mehnatini mutlaqo qadrsizlantirmoqda. Bu zamonaviy axborot bozorida adolatsiz raqobat muhitini yaratib media biznesning intellektual sarmoyasini himoyasiz qoldirmoqda. Bunday obyektlarni sof "mashina mahsuli" emas, balki algoritm va inson o'rtasidagi "**murakkab hammualliflik**" mahsuli sifatida qonunan e'tirof etish vaqti allaqachon kelgan.

Biz sun'iy intellekt davrida yashayapmiz, ammo intellektual mulkimizni o'tgan asr qoidalari bilan himoya qilishga urinmoqdamiz. Agar bugun jurnalistika, media menejmenti va vizual kommunikatsiya vakillari o'zlarining murakkab aqliy mehnati mahsulini qonunan himoya qila olmasa, sohada ijodkorlik o'rnini o'g'rilik, halol tijorat o'rnini esa xaos egallaydi.

Bunday huquqiy turg'unlikning oldini olish va O'zbekiston qonunchiligini zamonaviy axborot makoni realligiga moslashtirish uchun quyidagi aniq huquqiy qadamlarni zudlik bilan tashlashimiz zarur:

**Birinchi, "Ijodiy mehnat" tushunchasini kengaytirish.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasi hamda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunga qo'shimchalar kiritilishi kerak. Fikrimcha, inson tomonidan kompyuter algoritmlariga kiritilgan murakkab g'oyaviy, texnik va vizual parametrlar huquqiy jihatdan "ijodiy mehnat"ning zamonaviy shakli sifatida e'tirof etilishi shart. Prompter shunchaki mashinaga buyruq beruvchi emas, balki g'oya muallifi sifatida tan olinishi kerak.

**Ikkinchi, yangi huquqiy kategoriyani joriy etish.** Qonunchiligimizda an'anaviy asarlar qatorida "**Sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan asar**" degan alohida toifa yaratilishi lozim. Bu toifadagi obyektlarga nisbatan mualliflik huquqi hech qanday yuridik layoqati bo'lmagan "mashina"ga emas, balki asarni yaratish tashabbusi bilan chiqqan, algoritmn boshqargan va unga post-prodakshn orqali yakuniy sayqal bergan jismoniy yoki yuridik shaxsga birlashtirilishi talab etiladi.

**Uchinchi, tahririyatlarning tijoriy huquqlarini kafolatlash.** Media kompaniyalar va loyiha mualliflari o'z jamoasi tayyorlagan reklama integratsiyalari, koverlar yoki sssenariylarga nisbatan mutlaq mulkiy huquqlarga ega bo'lishi qonunan himoyalaniishi kerak. Asar sun'iy intellekt yordamida yaratilgan bo'lsa-da, agar u inson mehnati bilan uyg'unlashgan bo'lsa, "umumxalq mulki"ga aylanib qolmasligi zarur. Shundagina media bozorda intellektual mulkni ruxsatsiz o'zlashtirish holatlari ustidan sudga murojaat qilish va tovon puli undirish mexanizmi real ishlay boshlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt insonni san'at, jurnalistika maydonidan siqib chiqarayotgani yo'q. U shunchaki ijodning yangi, murakkabroq va tezkor quroliga aylanmoqda. Mashina qanchalik aqlli bo'lmasin, uning ortida hamisha insondagi fundamental g'oya, ijodiy reja va maqsad turadi. Bugungi milliy huquqshunosligimizning bosh vazifasi – ana shu insoniy g'oyani va uning raqamli davrdagi yangi mehnat shaklini adolatli va qat'iy himoya qilishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

##### I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (1996). 1031, 1033-moddalar. [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/111189>
  2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. (2006). 5, 9-moddalar. Lex.uz.
  3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7158604>
- II. Ilmiy maqolalar va xalqaro tadqiqotlar
4. Blaszczyk, M. (2025). Thaler v. Perlmutter: Human authors at the center of copyright. SSRN Electronic Journal. <https://doi.org/10.2139/ssrn.5210447>
  5. Ganesh, B., Seidelin, C., & Vogl, T. M. (2021). Smart Technology and the Emergence of Algorithmic Bureaucracy: Artificial Intelligence in UK Local Authorities. Public Administration Review. <https://doi.org/10.1111/puar.13286>
  6. Lai, S., Lim, D., Shi, L., & Tay, J. (2024). Legal Implications – Beijing Internet Court Grants Copyright Protection to AI-Generated Artwork. Allen & Gledhill LLP / TRAIL, NUS Law. <https://law.nus.edu.sg/trail/legal-implications-beijing-internetcourt-copyright/>
- III. Elektron resurslar va sud ishlari
7. Baker Donelson. (2026, March 5). Supreme Court denies certiorari in Thaler v. Perlmutter: AI cannot be an author under the Copyright Act. [Online resource]: <https://www.bakerdonelson.com/>
- World Intellectual Property Organization (WIPO). (2025). World Intellectual Property Indicators 2025. [PDF report]. <https://www.wipo.int/publications/>

INNOVATIVE  
ACADEMY